



**INTERTEKSTUALLIK TUSHUNCHASI VA UNING BADIY
MATNDAGI AHAMIYATI**

Erkinova Ruxshona Zyniddin qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada intertekstuallik tushunchasining mazmuni va uning badiiy matndagi ahamiyati yoritiladi. Intertekstuallikning mohiyati, ya'ni bir matnning boshqa matnlar bilan bog'lanishi, iqtibos, alluziya va an'anaviy obrazlar orqali namoyon bo'lishi oddiy va tushunarli tarzda izohlanadi. Intertekstuallik badiiy asarning mazmunini boyitishi, muallif fikrini chuqurroq ochib berishi hamda o'quvchi talqiniga ta'siri haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, badiiy matn, matnlararo bog'lanish, iqtibos, alluziya, adabiy an'ana, o'quvchi talqini.

**КОНЦЕПЦИЯ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В
КИНОТЕКСТЕ**

Эркинова Рухшона Зиниiddин кизи

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается содержание концепции интертекстуальности и ее значение в литературном тексте. Сущность интертекстуальности, то есть связь одного текста с другими текстами, ее проявление через цитаты, аллюзии и традиционные образы, объясняется простым и понятным языком. Высказываются идеи о том, как интертекстуальность обогащает содержание произведения искусства, глубже раскрывает мысль автора и влияет на интерпретацию читателя.

Ключевые слова: интертекстуальность, литературный текст, интертекстуальная связь, цитата, аллюзия, литературная традиция, интерпретация читателя.



Zamonaviy tilshunoslikda matnni faqat til birliklari majmui sifatida emas, balki inson tafakkuri va madaniy tajribasining mahsuli sifatida o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan matnning yaratilishi, anglanishi va talqin qilinishi bilan bog'liq masalalar tilshunoslikning bir qator yangi yo'nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini ochib berishda matnlararo aloqalar muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Badiiy asar hech qachon mutlaq mustaqil holda yuzaga kelmaydi, u avvalgi matnlar, madaniy an'analar va adabiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ana shu bog'liqlik intertekstuallik tushunchasi orqali izohlanadi. Intertekstuallik badiiy matnda turli shakllarda namoyon bo'lib, asar mazmunining chuqurlashuviga, muallif g'oyasining yanada ta'sirchan ifodalaydi. Mazkur maqolada intertekstuallik tushunchasining nazariy asoslari hamda uning badiiy matndagi ahamiyati yoritiladi. Intertekstuallikning asosiy ko'rinishlari va ularning matn mazmunini boyitishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berildi.

“Intertekst” – muayyan matn ichida keladigan matn yoki uning parchasi, qismlarini anglatuvchi atama, ya'ni matn tarkibida uning muallifiga tegishli boshqa matn yoki umuman o'zga matndan olingan parchadir. Intertekstuallik bevosita matnlararo shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi¹.

Y. Kristeva M. Baxtinning dialogizm g'oyasidan ilhomlanib, matnlararo munosabatlarni yanada tizimli ravishda izohlashga harakat qilgan. “Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o'zaro aloqada bo'ladi”, - deya Y.Kristeva ta'rif bergan. Umuman olganda, Intertekstuallik janri adabiyotshunoslar va olimlar tomonidan o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Turli davrlarda olimlar intertekstuallik to'g'risida o'zlarining bir-biridan farqli qarashlarini bayon qilganlar va intertekstuallikni bir qator turlarga bo'lganlar. Rus tilshunosi Fateeva intertekstual birliklarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Allyuziya - boshqa bir matnga ishora (“U Odissey kabi o'z yo'lini topishga harakat qildi” (Homerning “Odissey” asariga ishora).

¹ Xomidova M. Intertekst tushunchasi, tadqiqi va turlari. // Educational Research in Universal Sciences. - 902-B.



2. Reminissensiya - syujet o'xshashligi, boshqa bir matnning bevosita takrorlanishi (Shahar osuda edi, lekin ichki vahshatni his qilardingiz" (Dostonlardan mashhur manzarani eslatadi).

3. Epigraf - asarning kirish qismidagi boshqa bir muallifdan keltirilgan iqtibos (Har bir inson o'z taqdirining arxitektori." — Benjamin Franklin.

4. Sarlavha (bob, bo'lim yoki asarning nomi).

5. Havola - matnda boshqa manba, asar yoki muallifga ishora qilish ((Qarang: Baxtin, 1975)" yoki "Navoiy, Mahbub-ul Qulub, 1483).

6. Aforizmlar - hikmatli so'zlar ("Bilim — kuchdir" (muallif: Francis Bacon).

7. Maqol, matal².

Intertekstuallik badiiy matnning semantik va struktural tuzilishida muhim o'rin egallaydi. U matn ichida boshqa matnlar bilan bog'liq unsurlarni yuzaga chiqarish orqali mazmunning ko'pqatlamli bo'lishini ta'minlaydi. Natijada badiiy asar faqat muallif tomonidan yaratilgan yakka hodisa sifatida emas, balki avvalgi adabiy tajriba, madaniy xotira va umumiy bilimlar tizimi bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Intertekstuallikning namoyon bo'lishi turli shakllarda kuzatiladi. Bular orasida iqtibos, alluziya, mashhur iboralar, aforizmlar hamda an'anaviy obrazlarga murojaat qilish keng tarqalgan. Ushbu birliklar bevosita yoki bilvosita tarzda matnga kiritilib, o'quvchini muayyan madaniy va adabiy kontekstga yo'naltiradi. Intertekstuallik o'quvchidan faqat matnni o'qishni emas, balki uni tahlil qilish va anglash jarayonida faol ishtirok etishni talab etadi. Matnlararo aloqalar nafaqat badiiy adabiyotda, balki lingvistik tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til birliklari tizimi doirasida intertekstuallik til belgilarining qo'shimcha ma'no yukini yuzaga keltiradi. Bu esa matn mazmunini boyitadi, uning pragmatik va kommunikativ imkoniyatlarining kengaytiradi. Milliy madaniyatga xos bo'lgan maqol, matal, afsona va rivoyatlardan foydalanish badiiy matnning ta'sirchanligini oshiradi. Intertekstuallikning yana bir muhim jihati uning o'quvchi tafakkuri bilan

² Amonova M. Intertekstuallik va uning turlari. // International Conference of Science & Technology. - 54-55-B.



bevosita bog'liqligidir. O'quvchi matndagi intertekstual birliklarni anglash orqali muallif g'oyasini chuqurroq idrok etadi va asarni kengroq ma'noda talqin qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchining bilim darajasi, madaniy tajribasi va adabiy saviyasi muhim rol o'ynaydi. Intertekstuallik badiiy matnning mazmuniy, kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. U matnni ko'p qatlamli va sermazmun hodisaga aylantirib, adabiy jarayonning uzviyligini ta'minlaydi.

Intertekstuallikning namoyon bo'lishi muallif ijodiy niyati bilan chambarchas bog'liqdir. Muallif o'z fikrini yanada ta'sirchan yetkazish, asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirish maqsadida turli intertekstual birliklardan foydalanadi. Bunday birliklar matn tarkibiga ongli ravishda kiritilib, asarning mazmuniy yo'nalishini belgilashda muhim vazifani bajaradi. Sarlavha va epigraf orqali berilgan intertekstual ishoralar o'quvchini asar mazmuniga oldindan tayyorlaydi. Intertekstuallik badiiy matnning kompozitsion tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Matn ichiga kiritilgan boshqa matnlarga ishoralar syujet rivojiga xizmat qilishi, obrazlar xarakterini ochib berishi yoki muayyan voqea-hodisaga baho berish vositasi bo'lishi mumkin. Shu orqali muallif badiiy ifodaning yangi imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va an'anaviy tasvir usullarini boyitadi. Intertekstuallik madaniy xotira bilan uzviy bog'liq hodisa hisoblanadi. Har bir intertekstual birlik ma'lum bir tarixiy, ijtimoiy yoki madaniy kontekstga ega bo'lib, u o'sha kontekstni matn doirasida qayta jonlantiradi. Bu holat badiiy matnning vaqt va makon chegaralaridan chiqib, kengroq ma'no doirasida talqin qilinishiga imkon yaratadi. Zamonaviy adabiy jarayonda intertekstuallik ayniqsa faol qo'llanilmoqda. Turli davr va adabiy maktablarga mansub asarlar bilan muloqotga kirishish orqali yozuvchi o'zining individual uslubini namoyon etadi. Natijada badiiy matn an'anaviylik va yangilik uyg'unligida shakllanib, o'quvchi uchun intellektual jihatdan qiziqarli bo'lgan asarga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, intertekstuallik badiiy matnni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib, zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida dolzarb masala sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning badiiy matndagi



oʻrni va vazifalarini oʻrganish adabiy jarayonning uzviyligi hamda matn mazmunining chuqurroq talqin qilinishiga keng imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amonova M. Intertekstuallik va uning turlari. // International Conference of Science & Technology. - 54-55-B.
2. Kristeva J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J. Kristeva // Critique, 1967. T. 23, № 239.
3. Xomidova M. Intertekst tushunchasi, tadqiqi va turlari. // Educational Research in Universal Sciences. - 902-B.
4. Фатеева, Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Н.А. Фатеева // Известия АН. Сер. литературы и языка, 1997. Т. 56.